

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy instituti vakillarining tashrifi

Joriy yilning 13 fevral kuni Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent Axborot Texnologiyalari Universiteti Mudofaa vazirligi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy instituti vakillari Toshkentdagi Turin politexnika universitetiga tashrif buyurishdi. Tashrif davomida universitetning 3-bosqich talabalari bilan vakillar uchrashuvi tashkil etildi.

Suhbatni universitet rektori U. Salomov kirish so'zi bilan ochib, talabalarni vakillari va ularning tashrifi maqsadi bo'lgan Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetida maxsus fakultet – Mudofaa vazirligi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy instituti ochilganligi haqida talabalarni tanishtirdi.

So'ng so'z navbati Mudofaa vazirligi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy instituti rektori podpolkovnik X.A.Muxitdinov va kafedralar mudirlari podpolkovnik Z.D.Tashtaev. va B.V. Nurmetovlarga berildi. Ular talabalar 3-bosqichni tugatgandan so'ng ushbu institutga o'qishga kirish va olti yo'nalish bo'yicha ofitser darajasida ikki yillik taktik taqsil olish imkoniyatlari borligi haqida, shuningdek, institut qulayliklari, fakultetlari va o'qishni tugatgandan so'ng ishga joylashish to'g'risida ma'lumot berishdi.

Taqdimotdan so'ng qiziqqan talabalar qabul, kirish imtihonlari va boshqa savollarga javob olish imkoniyatiga ega bo'ldilar.

